O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29-iyun 2020-yildagi PF-6013-sonli Farmoniga asosan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilgan. Bunda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat

sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi etib belgilangan.

Agentlikni asosiy vazifalaridan biri - korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda mamlakatning imijini mustahkamlash va uning xalqaro reytinglardagi o'rnini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi.

Bugungi kunda Agentlik qator tashkilotlar bilan halqaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi:

- Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi;
  - Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi (BMT TD);
  - Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi (BMT GJB);
  - Birlashgan Millatlar Tashkilotning Bolalar jamg'armasi (YUNISEF);
  - Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (EXHT) O'zbekistondagi loyihalar koordinatori idorasi;
  - Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti;
  - Yevropa ittifoqi delegatsiyasi vakolatxonasi;
  - Yevropa kengashi hamda AQSH Davlat departamentining narkotik moddalar va huquqni muhofaza qilish masalalari bo'yicha byurosi (INL);
  - AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID);
  - Jahon banki;
  - Xalqaro valyuta jamg'armasi;
  - Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki;
  - Germaniyaning Konrad Adenauer nomidagi jamg'armasining O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi;
  - Sloveniyaning "Mintaqaviy muloqot" xalqaro nodavlat tashkiloti;
- Xalqaro tashkilotlar ko'magida **3ta** O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihalari, **2ta** Vazirlar Mahkamasi loyihalari va boshqa hujjatlar, jumladan, Investitsiya loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish metodologiyasi hamda O'zbekistonning korrupsiyani qabul qilish Milliy indeksi metodologiyasi loyihalari ishlab chiqildi.

**Xalqaro aloqalar yo'lga qo'yilgan xorij davlatlarining idora va tashkilotlari:**

- Malayziya korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi;
- Koreya Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va fuqarolik huquqlari bo'yicha komissiyasi;
- Fransiya Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- Xitoy Xalq Respublikasi Milliy nazorat komissiyasi;
- AQSH Davlat departamentining Xalqaro narkotik va huquqni muhofaza qilish masalalari bo'yicha byurosi;
- Singapur Korrupsiya jinoyatlarini tergov qilish byurosi;
- Latviya Respublikasi Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish byurosi;
- Qozog'iston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- Tojikiston Davlat moliyaviy nazorati va korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;

- Ozarbayjon Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish bosh boshqarmasi;
- Ukraina Korrupsiyaning oldini olish milliy agentligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish byurosi;
- Moldova Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy markazi;
- Afg'oniston Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi;
- Eron Islom Respublikasi Bosh inspeksiyasi tashkiloti;
- Pokiston Milliy hisobdorlik byurosi;
- Sloveniya Respublikasi Korrupsiyaning oldini olish komissiyasi;
- Misr Ma'muriy nazorat idorasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish akademiyasi;
- Germaniya Federal Ichki ishlar vazirligi, Germaniya Xalqaro huquqiy hamkorlik jamg'armasi va boshqalar.

Agentlikka Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tarmog'ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta'minlash hamda BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo'nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha **O'zbekiston Respublikasi milliy koordinatori** vazifa va vakolatlari yuklatilgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Mavzuni o'rganishda 2003-yil 31-oktyabrda qabul qilingan BMT ning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi, 1999-yil 27-yanvardagi Yevropa Kengashining "Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida"gi Konvensiyasi, 1999-yil 4-noyabrdagi "Korrupsiyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to'g'risida"gi Konvensiyalari va 2017-yil 3-yanvar kuni qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi va ma'ruzalari fundamental asos bo'lib xizmat qildi.

Shuningdek, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar va kamchiliklar va bu boradagi takliflari bo'yicha huquqshunos mutaxassislar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarni o'rganish natijalari bo'yicha ilmiy maqolalari, korrupsiyaga qarshi kurashda xorijiy rivojlangan davlatlarning metodlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi va ushbu metodlarni respublika miqyosida moslashtirilgan holda qo'llab samarali natijalarga erishish bo'icha takliflar ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi muammlolar va yechimlar bo'yicha asoslarini tadqiq etishda analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanildi.

**O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borishda xalqaro hamkorlik doirasida bir qator hujjatlarni imzolagan:**

**2020-2021-yillar davomida** Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan xalqaro hamkorlikka oid 8 ta memorandumlar imzolandi:

- **2020-yil 7-dekabr** O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Konrad Adenauer nomidagi jamg'armaning O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi o'rtasida Hamkorlik memorandumini;

- **2021-yil 5-iyun** Agentlik va Tojikiston Respublikasi Davlat moliyaviy nazorati va korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi o'rtasida Anglashuv memorandumini;

- **2021-yil 16-iyun** Agentlik va Qozog'iston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi o'rtasida Anglashuv va hamkorlik memorandumini;

- **2021-yil 11-oktyabr** Sloveniya Respublikasi Korrupsiyani oldini olish komissiyasi va O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi o'rtasidagi Anglashuv memorandumini;

- **2021-yil 28-oktyabr** Agentlik, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi xukumati tomonidan Buyuk Britaniyaning Toshkentdagi elchixonasi va Hukumatlararo Hamkorlik Xizmati o'rtasida hamkorlik o'rnatish yuzasidan Anglashuv memorandumini;

- **2021-yil 17-noyabr** Agentlik va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti o'rtasidagi Anglashuv memorandumini;

- **2021-yil 18-noyabr** Xalqaro korrupsiyaga qarshi akademiyasi va O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi o'rtasida Anglashuv memorandumini;

- **2021-yil 1-dekabr** Agentlik va Ozarbayjon Respublikasi Bosh prokurori huzuridagi korrupsiyaga qarshi kurashish bosh boshqarmasi o'rtasidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Anglashuv memorandumini;

- **2022-yil 12-may** Agentlik va Malayziya Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini.

- **2022-yil 24-may** Agentlik va Latviya Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish byurosi.

**Tahlil va natijalar.** Xalqaro miqyosda 1970-1980-yillarda Yaponiyaga samolyotlar sotishda kompaniya tomonidan oliy davlat amaldorlarini sotib olish bo'yicha "Lokxidishi" eng yirik korrupsiya ko'rinishlariga yaqqol misol bo'la oladi. Porani olish yoki berishda, shuningdek, vositachilik qilishda eng yirik kelishuvlar koproq "xizmat haqi" to'lash amaliyotidan foydalanishadi. Korrupsiyaning tarixiy o'zaklari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatlaridan kelibchiqqan deb taxmin qilinadi. O'sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markazlashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to'siq ekanligini korsatdi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, korrupsiyaga qarshi birinchi bo'lib kurashgan davlat bu qadimgi Shumer davlatidir. Har bitta davlatni hatto bugungi kunda ham tashvishga solayotgan eng katta muammolardan biri bu korrupsiya hisoblanadi. Dunyoning eng katta hisoblangan dinlarida ham korrupsiya qattiq qoralanadi, xususan musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lgan "Qur'oni karim"da ham, "Boshqalarning mol-mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib qilib uzatmangiz" deyilsa, xristianlarning muqaddas kitobi "Injilda" esa "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyiladi.

Bugungi kunda xalqaro miqyosda global muammoga aylangan korrupsiyaning oldini olish bo'yicha deyarli barcha davlatlarda faol kurash olib borilmoqda. Xususan buni birgina

yurtimiz misolida ham ko'rishimiz mumkin. Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ushbu illatga qarshi kurash davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi va korrupsiyani jilovlash va tugatish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlarning ro'yobi sifatida esa: 2008-yilda O'zbekiston BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qo'shildi. 2010-yilda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'i - Istanbul harakat dasturiga qo'shildi. Bu esa o'z navbatida yurtimizning korrupsiyaga qarshi kurashishida alohida o'rin tutadi albatta. Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi ayovsiz kurash 2016-yilning oktabr oyidan boshlandi. Shu yilning 14-oktabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning konstitutsiyaviy qonunchilik tashabbusi asosida 6 bob 34 moddadan iborat "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi qonun loyihasi Oliy Majlis tomonidan qabul qilindi va qonun 2017-yil 3-yanvardan boshlab kuchga kirdi. Ushbu qonunning qabul qilinishi yurtimizda korrupsiyaga qarshi samarali kurashishda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunning 4-moddasiga quyidagicha ta'rif beriladi: Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- ochiqlik va shaffoflik; tizimlilik;
- davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;
- korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;
- javobgarlikning muqarrarligi.

Mazkur qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlar to'liq qonuniy tartibga solish, davlat boshqaruvi organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashishi yuzasidan ko'rayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik muhitini yaratish ko'zda tutiladi.

**Munozara.** Demak, korrupsiya tarqqiyot kushandasi ekan u bilan kurashib muvoffaqiyatga erishish mumkinmi? Korrupsiyani butunlay yoqotish mumkinmi? Xalqaro miqiyosida natijaga erishgan davlatlar tajribasini o'rganib, tadbiriq etish orqali mamlakat hududida korrupsiyaning barcha, jumladan, kronizm, nepatizim, pora berish va olish, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik, mahalliychilik, lobbizim, manfaatlar to'qnashuvi kabi ko'rinishlarini butunlay yo'qotish, yoki minimal daradajada kamaytirish mumkinligiga harakat qilishimiz mumkinmi? Albatta mumkin. Qachonki, Li KuanYu ta'kidlaganidek, "korrupsiyani yengish uchun yuksak ahloqiy standartlar, qat'iy ishonch va xohishni deklaratsiya qilgan holda ishga kirishish qiyin emas. Ammo, ushbu prinsiplarga amal qilib yashash qiyin". Ya'nikim, korrupsiyani yo'qotish haqida minglab qonunlar qabul qilsakda, qachonki amalda ijrosi to'liq ta'minlasakgina bunga erishish mumkin. Barchaning qonun oldida tengligi prinsipiga amal qilgan holda korrupsiya huquqbuzarlik jinoyatini sodir etgan shaxslarni qanday lavozim mavqeyidan qat'iy nazar javobgarlikka tortish masalasi ustuvor bo'lmog'i shart. Shuningdek, korrupsiya sodir etgan mansabdor shaxslarga qayta lavozimni egallash vakolatidan butunlay mahrum etish ham samarali hisoblanadi.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashda aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat xodimlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini yuksaltirish, ta'lim

muassasalarida bu borada huquqiy ta'lim va tarbiyani kuchaytirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Huquqiy ongi va madaniyati yuksak, huquqiy jihatdan yetuk insonlar korrupsiyaga yo'l qo'ymaydilar.

Korrupsiyaga qarshi kurashni oiladan boshlash lozim. Bu jarayonda ayollarning roli beqiyos. Agar ayollar noqonuniy yo'l bilan kelgan daromadning asl mohiyatini anglasa va bu haqda ochiq fikr bildirsa, erkaklar halol rizq izlashga intilib, oilada farovonlik va xotirjamlik qaror topadi.

Yurtimizda bugungi kunning eng dolzarb muammosi hisoblangan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olishga doir ko'plab islohotlar o'tkazib kelinmoqda. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik o'zi nima? Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - bu korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar va jinoyatlar uchun javobgarlik va jazo belgilangan. Masalan, Jinoyat kodeksining 210-moddasi "Pora olish", 211-moddasi "Pora berish", 212-moddasi "Pora olish berishda vositachilik qilish" kabi moddalarini korishimiz mumkin. Bundan tashqari yurtimizda korrupsiyaga qarshi bir qancha huquqni muhofaza qiluvchi davlatorganlari oz faoliyatlarini olib bormoqdalar. [12]Bular:

- ✓ O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga

qarshi kurashish departamenti va boshqa davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqalar birdek mas 'uldir. Ushbu davlat organlari belgilab berilga vakolatlari doirasida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha davlat siyosatini amalga oshiradilar.

Ma'lumki, korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan dunyoning yetakchi davlatlari hisoblangan Malayziy, Fransiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur, Qozog'iston Respublikasi, Eron Islom Respublikasi, Germaniya kabi davlatlarning tajribasini organish va shu orqali ish olib borish yurtimizda keng joriy qilinmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashda yetakchi davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda alohida o'rin tutadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat O'zbekistonning, balki butun jahon hamjamiyatining eng dolzarb muammosi hisoblanadi. Xo'sh, korrupsiya o'zi qanday vujudga kelgan? Bunga asosiy sabablar etib quyidagilar keltiriladi. Ammo bu umumiy asoslardir. Har bir korrupsion holatlar ortida bulardan tashqari ham sabablarni ko'rishimiz mumkin afsuski:

- Aholining huquqiy savodxonligining pastligi;
- Jamiyat va davlat a'zolarining o'z haq-huquqlarini o'zlari paymol qilishi;
- Manfaatlar to'qnashuvi va qarindosh urug'chilik;
- Xulq-atvor qoidalarining, tarbiya va ma'naviyatning pastligi;
- Bozor munosabatlarida barqarorlikning yo'qligi;
- So'z va axborot erkinligining sust rivojlanganligi;

- Aholining davlatni nazorat qilishdagi ishtirokining pastligi, yuqori darajada rivojlanganligi;

- Inflyatsiyaning Iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi.

Davlat boshqaruvining oliy organlari aholidan uzoqlashishi va boshqa omillar korrupsiyaning kelib chiqishida muhim rol o'ynashi qonunlarda ta'kidlangan. Mamlakatimizda bu holatlarning aksariyatini bartaraf etish, faol demokratik davlat va korrupsiyasiz jamiyat qurishda samarali targ'ibotni amalga oshirish zarur. Bunga misol sifatida konstitutsiyaviy nazorat va huquq-tartibot organlarining faoliyatini ko'rsatish mumkin. Ular korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan qonunlarni konstitutsiyaga zid deb topish va oldini olish, aholining huquqiy ongi va savodxonligini oshirish kabi usullardan foydalanmoqda. Bu harakatlar davlatimizni korrupsiya darajasi past mamlakatlar qatoriga olib chiqishga qaratilgan. Bunday sa'y-harakatlar orqali hukumat korrupsiyaga qarshi kurashda sezilarli natijalarni qo'lga kiritishni maqsad qilgan.

Korrupsiyaning ildizini yo'qotishdagi eng to'g'ri yo'llardan biri bu – o'sib kelayotgan yosh avlodni odob-axloqli, yuksak ma'naviyatli komillik jihatlarini o'zida mujassam eta olgan shaxs sifatida tarbiyalashdir. Shu bilan birga, ta'lim-tarbiya jamiyatda hamda davlat hayotining barcha sohalari rivojiga birdek ta'sir ko'rsatadi. U insonni barcha qing'ir ishlardan, xususan, korrupsiya deb atalmish illatdan muhofaza qiladi. Shunday ekan, o'zimizga xulosa qilishimiz, kelajakni korrupsiyasiz birgalikda qurishimiz, buning uchun avvalo o'zimizni o'zimiz tarbiya qilishimiz, korrupsiyaning har qanday korishninishini bartaraf qilish uchun birgalikda kurashimiz zarurdir. Qabul qilingan korrupsiyaga qarshi qonun, qaror, farmon va farmoyishlar esa davlat va jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir etuvchi mazkur illatga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

2024-yil 5-iyun kuni O'zbekiston Respublikasining O'RQ-931-sonli "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi va 2024-yil 6-dekabrda kuchga kirishi belgilandi.

Jamiyat manfaatlariga xizmat qilish davlat xizmatining asosiy vazifasi sifatida qaraladi. Fuqarolar davlat organlari mansabdorlari o'z vazifalarini halol, adolatli va xolis bajarishini kutadi. Jamoatchilik esa hukumatdan davlat xodimlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining shaxsiy manfaatlari davlat qarorlariga ta'sir qilmaydigan, xizmat vazifalarini to'g'ri bajarishga xalaqit bermaydigan va davlat institutlari obro'siga putur yetkazmaydigan sharoitlarni ta'minlashni talab qiladi.

"Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonun korrupsiyaga qarshi kurash siyosatining asosi bo'lib, davlat xizmatining halolligi, shaffofligi, hisobdorligi va samaradorligini ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Ushbu normativ hujjat besh asosiy tamoyilni o'rnatadi. Bular davlat xizmatchilarining qonuniylik va fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat va davlat manfaatlarining ustuvorligini qo'llab-quvvatlashi hamda jamoatchilikning davlat xizmatiga ishonchini saqlab qolish, ochiqlik, shaffoflik, xolislik va korrupsiyaga murosasiz munosabatda bo'lishga intilishini o'z ichiga oladi.

Qonun suiiste'molchilik, noshaffof qarorlar qabul qilish va boshqa korrupsiyaviy amaliyotlar xavfini keltirib chiqaradigan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishga qaratilgan. Uning maqsadi bunday xavflarni boshqarishning aniq qoidalari va mexanizmlarini belgilash orqali davlat boshqaruvi sifatini oshirishdir.

Qonun asosida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, suiiste'molchiliklarni ta'qiqash, manfaatlar to'qnashuvi holatlarini boshqarish, davlat xizmatchilarining xabardorligini oshirish, ularni aniqlash, ochiqlash va hal qilishning samarali tartib-taomillarini ta'minlash hamda manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning samarali usullari haqidagi ma'lumotlarni tarqatishga qaratilgan zamonaviy siyosat va konsepsiya joylashtirilgan.

Qonun quyidagi qoidalarni belgilaydi: davlat organlarida xalollik va hisobdorlikni ta'minlashga qaratilgan idoraviy qoidalarni joriy etish; manfaatlar to'qnashuvi xavfini aniqlash va bartaraf etishni samarali ta'minlash; tashqi va ichki hisobdorlik mexanizmlarini kiritish; qonunchilikka rioya qilish uchun davlat xizmatchilarining shaxsiy javobgarligini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv uslublarini joriy etish.

Qonunda "manfaatlar to'qnashuvi", "shaxsiy manfaatdorlik", "yaqin qarindoshlar" tushunchalari aniq belgilab berilgan. U davlat xizmatchilariga o'z vazifalarini vijdonan bajarish, manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymaslik, o'zida yoki boshqalarda sodir bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash va zudlik bilan xabar berish majburiyatini yuklaydi.

Ushbu qonun BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Yevropa Kengashining Korrupsiyaga qarshi davlatlar guruhi (GRECO) va Jahon bankining tavsiyalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. IHTTning Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul harakatlar rejasi doirasidagi tavsiyalarga muvofiq, qonundagi "manfaatlar to'qnashuvi" tushunchasi haqiqiy va ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini o'z ichiga oladi.

Qonundagi "shaxsiy manfaatdorlik", "yaqin qarindoshlar" tushunchalari va manfaatlar to'qnashuvini hal qilish usullari IHTT Kengashining Davlat xizmatidagi manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha tavsiyalari (2003) va Yevropa Kengashining Davlat xizmatchilari xulq-atvorining namunaviy kodeksi asosida ishlab chiqilgan.

Xulosa qilib aytganda, ushbu qonun davlat xizmatida halollik, shaffoflik va samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy hujjat hisoblanadi. U manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, oldini olish va hal qilishning aniq mexanizmlarini belgilab beradi, shuningdek davlat xizmatchilarining mas'uliyatini oshirish va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Milliy qonunchilikni xalqaro standartlar va ilg'or tajriba bilan uyg'unlashtirishga asoslangan bunday yondashuv huquqiy vositalarning sifatini, chora-tadbirlarning natijadorligini va samaradorligini oshiradi hamda bu bilan korrupsiyaga qarshi samarali kurashish va davlat institutlariga nisbatan ishonchni mustahkamlashda muhim omil bo'ladi deb hisoblaymiz.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. "Korrupsiyaga qarshi kurashish" to'g'risidagi qonun Toshkent sh., 2017 yil 3-yanvar, O'RQ-419-son. (Law on "Combating Corruption" of Tashkent city, January 3, 2017, O'RQ-419)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2020 – yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasi (Address of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev to the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan dated January 24, 2020)
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (Criminal Code of the Republic of Uzbekistan) <https://lex.uz/docs/-111453>

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2023. – 80 (Constitution of the Republic of Uzbekistan. - T.: "Uzbekistan", 2023. - 80).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2024-yil, 06/24/221/0003-son. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" dated January 28, 2022 No. PF-60// National database of legislative information, 03.01 .2024, No. 06/24/221/0003)
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida" 2023 yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-yil, 06/23/214/0984-son. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on the strategy "Uzbekistan - 2030" dated September 11, 2023 No. PF-158//National database of legislative information, 29.12.2023, 06/23 No. /214/0984)
7. Nurmammedova G.B. Korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlar profilaktikasi mexanizmlarini takomillashtirish: usullari va yo'nalishlari // Yurist axborotnomasi – Lawyer herald. № 1 (2021), B. 189-201. (Nurmammedova G.B. Improvement of mechanisms of prevention of crimes related to corruption: methods and directions // Lawyer newsletter - Lawyer herald. No. 1 (2021), P. 189-201.)
8. M.H.Rustamboev. "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga Sharhlar" (Maxsus qism) 553-bet (M.H. Rustamboev. "Comments to the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan" (Special part) page 553)
9. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
10. <https://gov.uz/>
11. <https://www.gazeta.uz>
12. <https://anticorruption.uz/>

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/5 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари** электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).